

**ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION  
TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI**

**4/2025**



**I-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI**



|                                                                                                                                                          |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>1. Axatova Dildora</b><br>IBN SINO METAFIZIK QARASHLARI: MOHIYAT VA MAVJUDLIK<br>DOIRASIDA .....                                                      | 1  |
| <b>2. Жолымбетова Рауия</b><br>ҚОРАҚАЛПОҒИСТОННИ ЎРТАЧА ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚ ШАРОИТИДА F2<br>ДУРАГАЙЛАРДА МАҲСУЛДОРЛИГИ БЎЙИЧА ЎЗГАРУВЧАНЛИГИ .....          | 11 |
| <b>3. Bannayev Qosimjon</b><br>LOYIHAVIY YONDASHUVNING MOHIYATI, DIDAKTIK ASOSLARI VA TA'LIM<br>JARAYONIDAGI O'RNI .....                                 | 22 |
| <b>4. Qurbonova Kamola, Xayrulloeva Farxunda, Shukurova Rohatoy</b><br>THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON TEACHING METHODOLOGY .....                            | 30 |
| <b>5. Чориева Мадина, Шадиева Ситора</b><br>КАК ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ СТУДЕНТОВ К УРОКАМ «РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ».....                                                  | 37 |
| <b>6. Shukurulloxonov Fozilxon</b><br>O'ZBEKISTONDA EKOLOIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHING KONSEPTUAL<br>ASOSLARI.....                                    | 43 |
| <b>7. Xamdullaeva Zliya</b><br>IBRAYIM YUSUPOVNING FILOSOFIYALIQ LIRIKASINDA EKZISTENSIYALIQ<br>MOTIV .....                                              | 49 |
| <b>8. Maxsudov Olimjon</b><br>QURILISHDA INKLYUZIV UY-JOYLAR QURILISHDA XALQARO TAJRIBALAR .....                                                         | 53 |
| <b>9. Xomidov Muhammadzakiy</b><br>KAMOLATNING MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA KAMOL TOPISHIDA IJTIMOY-<br>PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 61 |

**IBN SINO METAFIZIK QARASHLARI: MOHIYAT VA  
MAVJUDLIK DOIRASIDA**

**Axatova Dildora Axtamovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

[dildoraaxatova06@gmail.com](mailto:dildoraaxatova06@gmail.com)

***Annotatsiya:** ushbu maqolada o'rta asrlar musulmon olimi Ibn Sinoning metafizik qarashlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor mohiyat va mavjudlik, zaruriy va mumkin mavjudlik hamda birinchi sabab (Alloh) masalalariga qaratilgan. Maqola Ibn Sinoning metafizikasi orqali mavjudlikning mohiyati va uning kelib chiqishini tushunishga hissa qo'shadi.*

***Kalit so'zlar:** Ibn Sino, metafizika, mohiyat, mavjudlik, zaruriy mavjudlik, mumkin mavjudlik, birinchi sabab.*

**МЕТАФИЗИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО: В РАМКАХ  
СУЩНОСТИ И СУЩЕСТВОВАНИЯ**

**Ахатова Дилдора Ахтамовна**

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры общественных наук

[dildoraaxatova06@gmail.com](mailto:dildoraaxatova06@gmail.com)

***Аннотация:** в данной статье анализируются метафизические взгляды средневекового мусульманского философа Ибн Сины. Основное внимание уделяется понятиям сущности и существования, необходимого и возможного бытия, а также концепции первой причины (Бога). Статья способствует более глубокому пониманию природы бытия через призму философии Ибн Сины.*

***Ключевые слова:** Ибн Сина, метафизика, сущность, бытие, необходимое бытие, возможное бытие, первая причина.*

## **IBN SINO'S METAPHYSICAL VIEWS: IN THE FRAMEWORK OF ESSENCE AND EXISTENCE**

**Akhatova Dildora Akhtamovna**

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Teacher, Department of Social Sciences

[dildoraaxatova06@gmail.com](mailto:dildoraaxatova06@gmail.com)

**Abstract:** *this article analyzes the metaphysical views of the medieval Muslim philosopher Ibn Sina (Avicenna). The focus is on his concepts of essence and existence, necessary and possible being, and the idea of the first cause (God). The study contributes to a deeper understanding of the nature of being through Ibn Sina's metaphysical philosophy.*

**Keywords** *Ibn Sina, metaphysics, essence, existence, necessary being, possible being, first cause.*

O'zbek falsafiy tafakkuri tarixida ulkan o'rin egallagan Abu Ali Ibn Sino (980–1037) nafaqat Sharq, balki jahon ilmiy-madaniy merosining yirik namoyandaligidan biri sifatida e'tirof etiladi. U tomonidan yaratib ketilgan boy falsafiy meros, xususan metafizik qarashlari, bugungi kunda ham dolzarb falsafiy muammolarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ibn Sinoning "metafizika" haqidagi qarashlari ayniqsa mohiyat va mavjudlik, zarurat va mumkinlik, sababiyat, vaqt va abadiylik kabi masalalarga bag'ishlangan asarlarida o'zining eng yuksak nazariy cho'qqisiga chiqqan.

Mazkur maqolada Ibn Sinoning metafizik ta'limoti zaminida yotgan mohiyat va mavjudlik tushunchalari tahlil qilinadi. Bu ikki tushuncha uning butun falsafiy sistemasining markaziy nuqtasini tashkil etadi. Unga ko'ra, mavjudlik mohiyatdan farq qiladi va bu tafovut barcha mavjudotlarning zaminini tashkil etuvchi ontologik asosdir. Ayniqsa, mavjudlikning "zaruriy" (vojibul-vujud) va

“mumkin” (mumkinul-vujud) shakllaridagi ajratilishi, Allohning mavjudligi va dunyoning paydo bo‘lishi haqidagi muammolarni falsafiy asosda yoritishda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, Ibn Sino o‘zining bu qarashlari bilan G‘arbdagi o‘rta asrlar falsafasiga, xususan, Tomas Akvinskiy, Albert Velikiy va boshqa shunoslar fikriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi zamonaviy falsafa va ilohiyotda ham Ibn Sino qarashlariga murojaat qilinayotgani, uning tafakkuri universalligi va davomiyligini tasdiqlaydi.

Shu bois, maqolada quyidagi asosiy masalalar ko‘rib chiqiladi: mohiyat va mavjudlik o‘rtasidagi tafovut, mavjudlikning zaruriy va mumkin shakllari, mavjudlikning sababiy izohi, Allohning zarur mavjudlik sifatidagi tushunchasi va bu qarashlarning bugungi falsafiy doiralarda tutgan o‘rni. Tadqiqotning maqsadi — Ibn Sino metafizikasining asosiy kontseptual asoslarini tahlil qilish orqali uning ontologik qarashlaridagi ichki mantiqiy uyg‘unlik va ularning bugungi falsafa uchun ahamiyatini yoritishdan iborat.

Ibn Sinoning metafizik tafakkurida eng asosiy tushunchalardan biri bu mohiyat (mahiya) va mavjudlik (vujud) o‘rtasidagi munosabatdir. U Aristotelning “Metafizika” asarida ko‘tarilgan muammolarni qayta ishlab, ularga o‘zining noyob yondashuvini olib kirgan. Ibn Sino fikricha, har bir mavjudot ikki jihatdan tahlil qilinishi mumkin: u qanday narsa (ya’ni mohiyat) va u bor yoki yo‘qligi (ya’ni mavjudlik). Mohiyat — bu narsa o‘zining qandayligini bildiruvchi tushuncha bo‘lib, u mavjudlikdan mustaqil fikrlanishi mumkin. Mavjudlik esa — narsa real ravishda mavjud yoki yo‘qligini bildiruvchi ontologik holatdir.

Ibn Sino bu borada quyidagicha deydi:

“Mohiyat ba’zida mavjud bo’ladi, ba’zida esa mavjud bo’lmaydi. Mavjudlik esa mohiyatga qo’shilgan bir narsadir, u mohiyatning o’ziga xosligi emas” [1, 62-bet].

Bu degani, narsa o’z mohiyatini saqlagan holda mavjud ham bo’lishi, mavjud bo’lmasligi ham mumkin. Masalan, “inson” degan mohiyat mavjud bo’lishi mumkin (masalan, Zayd, Umar kabi shaxslar ko’rinishida) yoki faqat aqlda fikriy narsa sifatida ham mavjud bo’lishi mumkin.

Bu ajratma orqali Ibn Sino mavjudotlarni fikriy (aqlga sig’adigan) va voqelikdagi (real) jihatdan tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Uning bu yondashuvi ayniqsa, ilohiyotda (masalan, Allohning mavjudligi va mohiyati haqidagi masalalarda) muhim metodologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Eng e’tiborga loyiq jihat shuki, bu yondashuv faqat mumkin mavjudotlarga taalluqlidir. Zaruriy mavjudlik — ya’ni Allohda mohiyat va mavjudlik bir-biridan ajralmaydi. Ibn Sino yozadi:

“Zaruriy mavjudotda mavjudlik mohiyatdan ajralmagan bo’ladi, u mohiyatning o’zidir. Uning mavjudligi zarurat bilan bo’ladi, u sababga muhtoj emas” [1, 73-bet].

Shunday qilib, Ibn Sino mohiyat va mavjudlik o’rtasidagi tafovut orqali mavjudotlarni zaruriy va mumkin turlarga ajratishning nazariy asosini yaratdi. Bu tafovut, keyinchalik Yevropa sxolastikasida Tommaso Akvino tomonidan ham qabul qilinib, uni metafizik asos sifatida ishlatgan [4, 132–135-betlar].

Ibn Sinoning metafizikasida mavjudlikning tafsili tahlilida asosiy nuqtalardan biri bu — mavjudlikni zaruriy (vojudi vojib) va mumkin (vojudi mumkin) shakllarda tasniflashidir. Bu tasnif Ibn Sinoning ontologik tizimini tashkil

etuvchi tayanch ustunlardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, har qanday mavjudot yoki mavjud bo'lishi zarur (ya'ni boshqa hech qanday tarzda bo'lmasligi mumkin emas), yoki mavjud bo'lishi mumkin (ya'ni bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin) bo'ladi.

Mumkin mavjudlik — bu o'z mohiyatiga ko'ra mavjud bo'lishi ham, mavjud bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan narsadir. Ya'ni uning mavjudligi tashqi bir sababga bog'liqdir. Ibn Sino yozadi:

“Har qanday mumkin mavjudot o'z-o'zidan mavjud emas, balki unga mavjudlik tashqaridan bo'lib berilgan” [1, 70-bet].

Bu degani, biz ko'radigan barcha mavjudotlar — odam, hayvon, daraxt, yulduzlar — barchasi mumkin mavjudotdir. Ular mavjud bo'lishi uchun tashqi sababga ehtiyoj sezadilar. Bunday mavjudotlar o'z mohiyati jihatidan mavjudlikni talab etmaydi, faqat tashqi sabab tufayli vujudga keladi.

Zaruriy mavjudlik esa mavjud bo'lmasligi mumkin emas bo'lgan mavjudlik turidir. Unga mavjudlik tashqaridan emas, o'z mohiyatining o'zidan kelib chiqadi. Ibn Sino bu haqda shunday yozadi:

“Zaruriy mavjudot o'z mohiyatiga ko'ra mavjuddir. Uning mavjudligi tashqi sababga bog'liq emas, balki o'zining o'zigagina tayanadi” [1, 72–73-betlar].

Ibn Sino nazarida, bu zaruriy mavjudlik — bu Allohdir. Alloh mavjud bo'lmasligi mumkin emas, u mavjudlikning boshlanish nuqtasidir. Bu fikr orqali Ibn Sino Allohning mavjudligini ontologik asosda isbotlaydi: har qanday mumkin mavjudlik sababga muhtoj bo'lsa, bu sabablar zanjiri cheksiz bo'lishi mumkin emas, va oxir-oqibat bu zanjir zaruriy mavjudotda tugashi lozim.

Ibn Sino Allohni zaruriy mavjudot sifatida ko'rsatibgina qolmay, balki bu mavjudlikning birlik va oddiylik (ya'ni murakkablikdan holi) bilan bog'liqligini ham asoslaydi. Alloh birligining dalilini quyidagicha keltiradi:

“Agar zaruriy mavjudot ko'plikdan iborat bo'lsa, u holda uning har bir qismi mavjud bo'lishi uchun boshqa bir narsaga muhtoj bo'ladi va bu esa uni mumkin mavjudotga aylantiradi” [1, 75-bet].

Shunday qilib, zaruriy mavjudlik tushunchasi Ibn Sinoda nafaqat falsafiy asos, balki ilohiy isbotning markaziy tamoyilidir. Bu konsepsiya keyinchalik musulmon kalomida ham, G'arb falsafasida ham keng o'zlashtirilgan. Ayniqsa, Tommaso Akvino Ibn Sinoning bu g'oyasini o'zining “bevosita sabab” nazariyasida asosiy omil sifatida qabul qilgan [4, 91-bet].

Ibn Sino falsafasida sababiyat nazariyasi butun mavjudotlar tuzilmasini tushunish uchun kalit rolini o'ynaydi. Unga ko'ra, har bir mumkin mavjudotning mavjud bo'lishi uchun sabab kerak. Bu sabablar zanjiri esa o'z-o'zidan cheksiz bo'lishi mumkin emas, balki u muqarrar ravishda zaruriy mavjudotda – ya'ni Allohda – yakun topadi. Bu tamoyil ‘imkon mavjudlikning sababini talab qilishi’ degan fikrga asoslanadi.

Ibn Sino yozadi:

“Har qanday mumkin mavjudotning sababi bor, va sabablar zanjiri davomli bo'lishi mumkin emas, aks holda bu mavjudotlarning o'zi ham mavjud bo'lmasdi. Shunday ekan, bu zanjir zaruriy mavjudotda tugaydi” [2, 80-bet].

U bu yerda mashhur falsafiy prinsip — “tasalsul” (ya'ni sabablar cheksiz zanjiri)ning mumkin emasligini asoslab beradi. Sabablar cheksiz davom etsa, hech bir narsa yuzaga kelmas edi, chunki har bir sabab o'z sababiga bog'liq bo'lardi.

Demak, mavjudotlarning boshlanishi uchun avvalgi sababga ehtiyoj sezmaydigan, o'zidan o'zi mavjud bo'lgan sabab kerak bo'ladi. Bu esa faqat zaruriy mavjudot — Alloh bo'lishi mumkin.

Ibn Sino bu borada sababiyatni to'rt turga bo'ladi:

1. Asosiy (materiya) sababi – mavjudotning zaminini tashkil etuvchi modda.
2. Formal sabab – mavjudotning shakli, mohiyati.
3. Harakatlantiruvchi (effitsiyent) sabab – mavjudotning vujudga kelishiga sabab bo'lgan kuch.
4. Maqsad (final) sababi – mavjudot nimaga erishish uchun mavjud bo'lganini bildiradi.

Bu to'rt sabab Aristotelning metafizik konsepsiyasidan olingan bo'lsa-da, Ibn Sino uni islomiy tafakkur doirasiga moslab yangicha talqin qiladi. Xususan, u harakatlantiruvchi sababni eng muhim deb biladi va bu sabab oxir-oqibat birinchi harakatlantiruvchi sabab — Allohga borib taqalishini ko'rsatadi.

Ibn Sino sababiyat tizimida mavjudotlarning ierarxiyasini yaratadi. Unga ko'ra, yuqoridan pastga — ya'ni zaruriy mavjudotdan mumkin mavjudotlarga bir zanjir mavjud. Bu zanjirda har bir mavjudot o'zidan quyi darajadagi mavjudotning sababchisidir. Bu esa butun koinotni tartibli, oqilona va iyerarxik bir tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, Ibn Sino sababiyatga oid qarashlari orqali ilohiy iroda bilan dunyo tartibini birlashtiradi. U dunyoni ilohiy sabab asosida, lekin abadiy va doimiy tartibda yaratilgan deb tushunadi, bu bilan u kalomdagi “dunyo vaqtli yaratilgan” degan g'oyadan farqlanadi.

Shunday qilib, Ibn Sinoning sababiyat nazariyasi uning metafizikasida markaziy o'rinda turib, mavjudlikning asosiy tushunchalari — mumkinlik, zaruriyat, mohiyat va mavjudlik — bilan uzviy bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi.

Ibn Sinoning metafizikasining ta'siri

Ibn Sinoning metafizikasi faqat musulmon olamida emas, balki G'arb falsafasida ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. Uning zaruriy mavjudlik va mavjudotlar zanjiri haqidagi nazariyalari, o'zining ta'sirini Skolastik falsafa asarida davom ettirdi. Ayniqsa, Tommaso Akvino va Albertus Magnus kabi G'arb falsafiy olimlari Ibn Sinoning tafakkurini o'z asarlarida keng qo'llaganlar. Akvino, Ibn Sinoning Allohning mavjudligini isbotlashdagi zaruriy sabab va mumkin sabab o'rtasidagi tafovutni o'z tizimida qabul qilib, bu nazariyani G'arb scholastikasi uchun markaziy o'rinlardan biriga aylantirdi [3,157-bet].

Ibn Sinoning sababiyatga oid yondashuvi, nafaqat falsafiy jihatdan, balki ilmiy uslubda ham inqilobiy ahamiyatga ega bo'ldi. U, mavjudotlar zanjirining beqaror bo'lishi mumkin emasligini isbotlash orqali, bu muammoni yangi shaklda ilgari surdi. Ibn Sinoning metafizikasi G'arb falsafasining mantiqiy va ontologik masalalariga chuqur ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, Kant va Hegel kabi falsafiy tizimlarni shakllantirishda uning nazariyasi muhim manba bo'ldi.

Musulmon olamida esa Ibn Sinoning tafakkuri ko'plab mutafakkirlar tomonidan keng qo'llanildi. Forobiy, Fahriddin Roziy, Ibn Rushd va boshqa buyuk islomiy faylasuflar uning fikrlarini rivojlantirishda va yangi nazariyalar yaratishda Ibn Sinoning asosiy g'oyalariga murojaat qildilar. Ibn Sinoning zaruriy va mumkin mavjudlik tushunchalari, islomiy kalomda ham keng yoritilgan, bu esa uning g'oyalarining keng qamrovli va uzoq muddatli ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning metafizikasi islomiy falsafada o'zining noyob o'rniga ega bo'lib, uning tafakkuri nafaqat musulmon olamida, balki G'arb falsafasida ham chuqur iz qoldirgan. Uning mavjudlik, mohiyat, sababiyat va zaruriyat haqidagi qarashlari o'zining tizimli va mantiqiy tahlili bilan ajralib turadi. Ibn Sinoning mohiyat va mavjudlik tafovuti, zaruriy va mumkin mavjudlik tushunchalari, shuningdek, sababiyat va mavjudotlar zanjiri nazariyasi — bu metafizikaning markaziy tamoyillari bo'lib, ular orqali Ibn Sino mavjudlikni yangi, aqlga sig'adigan shaklda izohladi.

Uning asarlari, ayniqsa “Kitob ash-Shifo” va “Kitob an-Najot”, ilohiyot, ontologiya va sababiyat masalalariga nisbatan chuqur ilmiy yondashuvni o'z ichiga oladi. Ibn Sinoning zaruriy va mumkin mavjudlik, mohiyat va mavjudlik o'rtasidagi tafovut haqidagi fikrlarini tahlil qilish orqali biz mavjudotlarning mohiyati va tabiati haqida yanada aniqroq tushuncha hosil qilishimiz mumkin. Uning falsafasi, nafaqat islomiy tafakkurda, balki G'arb skolastikasida ham mavjudlik va sababiyatni tushunishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Bundan tashqari, Ibn Sinoning mavjudlikni tasniflashdagi yondashuvi, zaruriy mavjudotni — Allohni — mavjudotlarning oxirgi sababi sifatida belgilash orqali, falsafiy va ilohiy jihatlarni uyg'unlashtirib, o'zining falsafiy tizimini mukammal tarzda shakllantirdi. Bu bilan Ibn Sino islomiy falsafani tasdiqlovchi va rivojlantiruvchi muhim mutafakkir sifatida tarixda o'zining o'rnini mustahkamladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibn Sina. Kitob ash-Shifo. 11-jild, Nosiriy Nashriyoti, 1952.
2. Ibn Sina. Kitob an-Najot. Tahqiq: M. Fahriy, Dar al-Afaq al-Jadida, 1985.

3. Gutas, Dimitri. Avicenna and the Aristotelian Tradition: Introduction to Reading Avicenna's Philosophical Works. Brill, 2001.
4. Nasr, Seyyed Hossein. Three Muslim Sages: Avicenna, Suhrawardi, Ibn Arabi. Harvard University Press, 1964.

**ҚОРАҚАЛПОҒИСТОННИ ЎРТАЧА ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚ  
ШАРОИТИДА  $F_2$  ДУРАГАЙЛАРДА МАҲСУЛДОРЛИГИ БЎЙИЧА  
ЎЗГАРУВЧАНЛИГИ**

**Жолымбетова Рауия Мажит кизи**

Таянч докторант Қорақалпоғистон қишлоқ  
хўжалиги ва агротехнологиялар институти.  
Айтжанов Бахитжан Узақбаевич қ.х.ф.д., к.и.х.  
[Ilmiyizlanuvchi@gmail.com](mailto:Ilmiyizlanuvchi@gmail.com)

**Кириш.** Ғўза селекция ва генетикаси фанлари пахта ҳосилдорлигини ва сифатини оширишда асосий ўринни эгаллайди. Пахта ҳосилини ошириш бўйича жаҳонда ва Республикамизда ғўза селекционер олимлари ишлаб турли йўналишларда тадқиқотлар олиб боришмоқда. Дунёдаги пахтачилик соҳаси ривожланган АҚШ, Мексика, Бразилия, Хитой, ва Африка каби давлатларда ғўзадан юқори ва сифатли ҳосил олиш бўйича соҳада замонавий селекцион услубларни қўллаш орқали кўпгина ютуқларга эришилмоқда. Ушбу хорижий давлатлардан келтирилган янги технологиялар ва ғўзанинг янги навларини яратишда қимматли хўжалик белгиларига эга бўлган бошланғич ашёларни селекция жараёнларига жалб этиш орқали пахта ҳосилини ошириш ва тезпишарлик кўрсаткичларини яхшилаш муҳим ҳисобланади ҳамда Республикамизда ғўзадан юқори ва сифатли пахта ҳосили етиштиришда тола сифати ва чиқимини ошириш ва тезпишарлик кўрсаткичларини яхшилаш масаласи ҳанузгача долзарб муаммолардан бўлиб келмоқда. Бу тўсиқни босиб ўтишда селекция жараёнига ғўза коллекциясидан хорижий давлатлар намуналаридан фойдаланилган ҳолда турли хил ноқулай

экстремал шароитларга бардошли ва шўрланган тупроқларда юқори ҳамда сифатли ҳосил берадиган навлар яратиш учун ғўзанинг келиб чиқиш марказларидан келтирилган коллекцион намуналарни ўрганиш, шунинг билан бир каторда, уларни Қорақалпоғистон ўртача шўрланган тупроқ-иқлим шароитида маҳаллий навлар билан чатиштириб, уларни авлодларини қимматли хўжалик белгиларини таҳлиллари асосида селекция учун бошланғич ашё яратиш долзарб масала ҳисобланади.

В.М.Берлянд-Коженнеков, Г.В.Удовенколар [1] таъкидлашича навлараро чатиштириш реципрок йўли билан олинган ғўза дурагайларида тузга чидамлилиқ белгисини (даражасини) ирсийланиш характери бўйича таҳлил қилганда, дурагайларда учун шўрга бардошлиликни ирсийланиши оралиқ кўрсаткичга эга бўлиб, нотўлиқ доминантликка, яъни нисбатан шўрга бардошли ота-она шаклига яқин бўлган. Бундай чатиштиришларда шўрга бардошлилик даражаси, ота-она шакллари ичида шўрга нисбатан чидамли бўлган шакл, оналик сифатида қатнашганда дурагайларда бардошлилик юқори бўлган, яъни дурагайларда цитоплазматик таъсир самараси кузатилди.  $F_2$  ва  $F_3$  дурагайларда шўрга бардошлилик даражаси бўйича кенг ажралиш спектори икки ота-оналик кўрсаткичлари орасида жойлашган, ушбу полиген белгилар ирсийланишига хос бўлган ҳолат кузатилган, ундан ташқари ўртача шўрланган тупроқ шароитида айрим  $F_3$  дурагайларда нисбатан чидамли ота-она шаклларида юқори кўрсаткичга эга бўлган трансгрессив шакллар пайдо бўлган.

**Тадқиқот материаллари ва услуби.** Бизнинг изланишларимиз эса Қорақалпоғистон деҳқончилик илмий тадқиқот институтининг “Ўза селекцияси ва уруғчилиги ва уруғчилиги” лабораториясининг дала ва лаборатория шароитида олиб борилди. Ушбу намуналарни ўрганишдан мақсад Қорақалпоғистоннинг ўртача шўрланган тупроқ-иклим шароитида ПСУЕАИТИ ўза коллекциясида мавжуд бўлган Хитой, Африка, Австралия, Ҳиндистон, Покистон ва АҚШ давлатларидан келтирилган коллекцион нав, намуналарни маҳаллий навлар билан дурагайлаш асосида тезпишар, маҳсулдор ҳамда толаси IV типга мансуб бўлган бошланғич ашёлар яратиш ва амалий селекция учун тавсия этишдан иборат. Намуналар бўйича экилган  $F_2$  авлод дурагайлари, ота-она шакллари ва андоза сифатида С-4727 нави экилди. Барча дала кузутувлари ва тадқиқотлар натижасида олинган маълумотлар Б.А.Доспеховнинг «Методика полевого опыта» [2, 3.] услуби асосида статистик таҳлилдан ўтказилган бўйича олиб борилди. Жумладан, изланишлар дала тажрибасида морфобиологик белгилар бўйича фенологик кузатувлар ва қимматли хўжалик белгилари дала ва лаборатория таҳлиллари олиб борилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Маълумки, пахта ҳосилдорлиги юқори бўлиши бир туп ўсимликдан олинадиган маҳсулдорлигига боғлиқ бўлади. Маҳсулдорлик белгиси тўлиқ сақланиб қолган кўсаклар сони, бир кўсакдаги пахта вазни, чанокдаги чигитларнинг сони, чигитларнинг вазни ва тола индекси каби белгиларга боғлиқ ҳисобланади. Ўза селекциясининг асосий

вазифаларидан бири ҳосилдорликни оширишдир. Хорижий нав, намуналар ва маҳаллий навларни чатиштиришлар ўтказиш кейинги авлодларда бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги бўйича  $F_1$  дурагайларда ирсийланиши ўз натижаларини кўрсатди. Ёўзани эколо-географик узоқ нав, намуналари билан маҳаллий навларни дурагайлаш асосида олинган  $F_2$  дурагай ўсимликларни бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги белгисининг ўзгарувчанлик даражаси таҳлил қилинди. Бунда ота-она шаклларида ўсимликлар сони 44-48 донани,  $F_2$  дурагайларда эса 45-50 донга бўлиб, маҳсулдорлик бўйича кўрсаткичлар 10 граммдан 8 та синфда учраганлиги кузатилди. Бунда ўсимликлар 41 граммдан 120 граммгача бўлиб, вариацион қаторларда турлича жойлашганлиги аниқланди. Тадқиқотларда эколо-географик узоқ нав, намуналар ва маҳаллий навларда бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги ўртача 73,7 граммдан 011597 (АҚШ), 86,1 граммгача Султон навида бўлганлиги маълум бўлди. Ота-она шаклларида ва  $F_2$  дурагайларда асосий ўсимликлар 3-6 синфлар оралиғида (61-100 грамм) жойлашганлиги кузатилди. Ушбу синфларда хорижий нав, намуналар ва маҳаллий навларда 77,0 фоиздан КК-3535 навида, 89, 1 фоизгача Чимбой-5018 навида, ҳамда  $F_2$  дурагайларда 76,0 фоиздан  $F_2$  (Африка. 06199 х Султон) комбинациясида, 85,7 фоизгача  $F_2$  (Австралия. 06830 х Чимбой-5018) комбинациясида ўсимликлар учраганлиги маълум бўлди.  $F_2$  дурагайларда бир туп ўсимлик маҳсулдорлик кўрсаткичи ўртача 74,1 граммдан  $F_2$  (Ҳиндистон. 16461 х Султон) комбинациясида, 86,3 граммгача  $F_2$  (Австралия. 06830 х Чимбой-5018) эканлиги аниқланди. Андоза

сифатида олинагн С-4727 навида бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги ўртача 70,4 граммни ташкил этди. Қорақалпоғистонни ўртача шўрланган тупроқ-иқлим шароитида бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги бўйича ўрганилган ота-она шаклларида 101 грамм ва ундандан юқори бўлган ўсимликлар 15,2 фоиз (Хитой) 06058, 11,3 фоиз (Африка ) 06201, 13,9 фоиз (Покистон), 12,5 фоиз 07291 (АҚШ) 011571 нав, намуналар ва маҳаллий навлардан 16,6 фоиз КК-3535 навида, 12,7 фоиз Султон навида бўлиб, бошқа маҳсулдор бўлган ўсимликлар ажралиб чиқди. Бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги бўйича ўзгарувчанлик коэффиценти ота-она шаклларида 13,9-20,8 фоиз оралиғида бўлди. Бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги бўйича  $F_2$  дурагайлардан эса 101 грамм ва ундан юқори бўлган  $F_2$  (Хитой. 06058 х КК-3535) комбинациясида 8 та (16,3 %),  $F_2$  (Африка. 06201 х Чимбой-5018) комбинациясида 6 та (12,0 %),  $F_2$  (Австралия. 09801 х КК-3535) комбинациясида 6 та (12,5 %) ва  $F_2$  (Покистон. 07291 х КК-3535) комбинациясида 8 та (17,0 %) ўсимликлар мавжуд бўлганлиги ҳамда ота-она шакллари ва бошқа ўрганилган дурагайларга нисбатан маҳсулдор ҳсимликлар ажралиб чиққанлиги аниқланди. Ушбу белги бўйича  $F_2$  дурагай ўсимликларда ўзгарувчанлик коэффиценти 16,5-19,8 % оралиғида бўлди 1-жадвал.

**Хулоса.** Юқоридаги тадқиқотлар натижасида кўйидагича хулосага келишимиз мумкин:

1. Мамлакатимизда тола ҳосилдорлиги 7-8 ц/га бўлиб, пахта етиштирувчи етакчи давлатлардан 2-3 баробар кам бўлганлиги сабабли тола ҳосилдорлигини ошириш тадқиқотлар олимларнинг эътиборини жалб этади.

2. Бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги белгиси Қорақалпоғистонни ўртача шўрланган тупроқ-иқлим шароитида ота-она шакллари ва  $F_2$  дурагай ўсимликлар авлодлардан вариацион қаторнинг чап томонида жойлашган, маҳсулдорлиги 81 граммдан паст бўлган ўсимликлар чиқитга чиқазилди ҳамда 81 грамм ва ундан юқори бўлган.

3. Вариацион қаторнинг ўнг томонида жойлашган тезпишар, кўсаклар сони кўп бўлган ўсимликлар кейинги авлодларда тажрибалар олиб бориш ва саосий қимматли хўжалик белгилари нисбатан бир генотипда жойлашган бошланғич ашёлар яратиш мақсадида ажратиб олинди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.**

1. Берлянд-Кожевников В.М., Удовенко Г.В. Физиолого-генетические аспекты селекции растений на устойчивость к экстремальным условиям. Тр.по приклад.ботан., генет. и селекции, 1981, т. 71, № 1. С. 34-40.

2. Доспехов Б. А. Методике полевого опыта. -Москва: Агропро-миздат. 1985. 351.с

3. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. Тошкент, ЎзПТИ, 2007. 146-б.

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI

XVI-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 4(2025)

Available at [www.uznauka.uz](http://www.uznauka.uz)



1-жадвал

**Эколо-географик узоқ нав, намуналар ва маҳаллий навлар  
иштирокида олинган  $F_2$  дурагайларда  
бир туп ўсимлик маҳсулдорлиги бўйича ўзгарувчанлик таҳлили.**

|   | Ота-она шакллари ва<br>$F_2$ дурагайлар | K=10 грамм. |          |          |          |          |           |         |         | $\pm m$           | %       |
|---|-----------------------------------------|-------------|----------|----------|----------|----------|-----------|---------|---------|-------------------|---------|
|   |                                         | 1-<br>50    | 1-<br>60 | 1-<br>70 | 1-<br>80 | 1-<br>90 | 1-<br>100 | 01<br>- | 11<br>- |                   |         |
| . | (Хитой) 06058                           |             |          |          | 2        | 5        |           |         |         | 4,2 $\pm$ 2,<br>1 | 4,5 7,1 |
| . | (Африка ) 06199                         |             |          | 1        | 6        |          |           |         |         | 4,6 $\pm$ 2<br>,1 | 5,4 0,8 |
| . | (Африка ) 06201                         |             |          |          | 1        | 7        |           |         |         | 2,3 $\pm$ 2<br>,0 | 3,9 6,9 |
| . | (Австралия) 06830                       |             |          |          | 0        | 8        |           |         |         | 4,2 $\pm$ 1<br>,9 | 3,9 6,6 |

|   |                   |  |  |   |   |   |  |  |  |   |             |     |     |
|---|-------------------|--|--|---|---|---|--|--|--|---|-------------|-----|-----|
| . | (Австралия) 09801 |  |  |   | 1 | 6 |  |  |  | 7 | 2,4±1<br>,9 | 3,6 | 6,4 |
| . | (Ҳиндистон) 16461 |  |  |   | 6 |   |  |  |  | 5 | 4,6±2<br>,2 | 4,4 | 9,3 |
| . | (Покистон) 07291  |  |  |   | 3 | 5 |  |  |  | 3 | 3,1±2<br>,2 | 4,8 | 7,8 |
| . | (АҚШ) 011571      |  |  |   | 2 | 6 |  |  |  | 8 | 4,1±1<br>,8 | 3,8 | 6,2 |
| . | (АҚШ) 011597      |  |  | 0 | 5 |   |  |  |  | 4 | 3,7±2<br>,1 | 4,6 | 9,8 |
| 0 | КК-3535           |  |  |   |   | 0 |  |  |  | 8 | 5,2±2<br>,1 | 5,0 | 7,7 |
| 1 | Чимбой-5018       |  |  |   |   | 1 |  |  |  | 6 | 5,2±1<br>,5 | 1,8 | 3,9 |

|   |                                                 |  |  |  |   |   |   |  |  |   |             |     |     |
|---|-------------------------------------------------|--|--|--|---|---|---|--|--|---|-------------|-----|-----|
| 2 | Султон                                          |  |  |  |   | 2 |   |  |  | 7 | 6,1±1<br>,2 | 2,3 | 4,2 |
| 3 | F <sub>2</sub> (Хитой. 06058 х КК-3535)         |  |  |  |   | 6 | 3 |  |  | 9 | 7,9±1<br>,9 | 4,1 | 6,0 |
| 4 | F <sub>2</sub> (Африка. 06199 х Султон)         |  |  |  | 8 |   |   |  |  | 6 | 5,9±2<br>,0 | 5,1 | 9,8 |
| 5 | F <sub>2</sub> (Африка. 06201 х Чимбой-5018)    |  |  |  |   | 0 |   |  |  | 0 | 5,3±2<br>,3 | 4,1 | 6,5 |
| 6 | F <sub>2</sub> (Австралия. 06830 х Чимбой-5018) |  |  |  |   | 8 | 1 |  |  | 9 | 6,3±1<br>,9 | 3,4 | 5,7 |
| 7 | F <sub>2</sub> (Австралия. 09801 х КК-3535)     |  |  |  | 0 | 0 |   |  |  | 8 | 5,4±1<br>,4 | 3,2 | 5,4 |
| 8 | F <sub>2</sub> (Хиндистон. 16461 х Султон)      |  |  |  | 8 |   |   |  |  | 5 | 4,1±2<br>,0 | 4,7 | 9,8 |

|        |                                            |  |  |   |   |   |   |  |  |   |             |     |     |
|--------|--------------------------------------------|--|--|---|---|---|---|--|--|---|-------------|-----|-----|
| 9<br>. | F <sub>2</sub> (Покистон. 07291 х КК-3535) |  |  |   |   | 6 | 0 |  |  | 7 | 6,1±1<br>,9 | 4,5 | 6,8 |
| 0<br>. | F <sub>2</sub> (АҚШ. 011571 х Султон)      |  |  |   |   | 7 | 3 |  |  | 9 | 5,9±2<br>,0 | 4,2 | 6,7 |
| 1<br>. | F <sub>2</sub> (АҚШ. 011597 х Чимбой-5018) |  |  |   | 5 | 2 |   |  |  | 7 | 8,4±2<br>,1 | 9,8 | 6,7 |
|        | St. C-4727                                 |  |  | 1 |   |   |   |  |  | 6 | 0,4±1<br>,9 | 1,6 | 6,4 |

**LOYIHAVIY YONDASHUVNING MOHIYATI, DIDAKTIK  
ASOSLARI VA TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI**

**Bannayev Qosimjon Qodirjonovich**

Namangan davlat texnika universiteti - mustaqil tadqiqotchi  
[qosimjonbannaev@gmail.com](mailto:qosimjonbannaev@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada loyihaviy yondashuvning mazmun-mohiyati, uning didaktik asoslari va zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Loyihaviy yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishi va bilimlarni hayotiy muammolar yechimiga yo'naltirishi bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida loyiha metodining afzalliklari, cheklovlari, uni turli bosqichlarda samarali qo'llash usullari va xalqaro tajribalar ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** loyihaviy yondashuv, Project-based learning (PBL), mustaqil fikrlash, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, konstruktivistik yondashuv, pedagogik innovatsiya, fanlararo integratsiya, amaliy ko'nikmalar, ta'limda raqamli texnologiyalar, qishloq xo'jaligida ta'lim loyihalari.

**СУТЬ ПРОЕКТНОГО ПОДХОДА, ДИДАКТИЧЕСКАЯ ОСНОВА  
И ЕГО МЕСТО В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

**Баннаев Касимжон Кадиржонович**

Namangan State Technical University - независимый исследователь  
[qosimjonbannaev@gmail.com](mailto:qosimjonbannaev@gmail.com)

**Аннотация.** В статье анализируется сущность проектного подхода, его дидактические основы и его значение в современном образовательном процессе. Проектный подход характеризуется самостоятельностью мышления учащихся, формированием практических навыков и применением



знаний для решения реальных жизненных задач. В исследовании были рассмотрены преимущества и ограничения проектного метода, способы его эффективного применения на различных этапах, а также международный опыт.

**Ключевые слова:** проектный подход, проектное обучение (PBL), самостоятельное мышление, компетентно-ориентированное образование, конструктивистский подход, педагогические инновации, междисциплинарная интеграция, практические навыки, цифровые технологии в образовании, образовательные проекты в сельском хозяйстве.

## **THE ESSENCE OF THE PROJECT APPROACH, DIDACTIC FOUNDATIONS AND ITS ROLE IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Bannayev Qosimjon Qodirjonovich**

Namangan State Technical University - independent researcher  
qosimjonbannaev@gmail.com

**Annotation.** This article analyzes the essence of the project approach, its didactic foundations and its importance in the modern educational process. The project approach is characterized by independent thinking of students, the formation of practical skills and the orientation of knowledge to solving life problems. During the study, the advantages and limitations of the project method, methods of its effective application at different stages and international experience were considered.

**Keywords:** project approach, Project-based learning (PBL), independent thinking, competency-based education, constructivist approach, pedagogical



*innovation, interdisciplinary integration, practical skills, digital technologies in education, educational projects in agriculture.*

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini talaba faoliyatiga asoslangan, o'quvchini markazga qo'yuvchi yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo qilmoqda. Bunday yondashuvlardan biri bu loyihaviy yondashuv bo'lib, u o'quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammo yechish malakalarini rivojlantirishda samarali vositadir (Zheng et al., 2024; Villan & dos Santos, 2023).

Dewey (1938) o'zining ta'lim konsepsiyasida tajriba va faoliyat orqali o'qitish g'oyasini ilgari suradi, bu loyiha asosidagi ta'limga zamin yaratgan. Bugungi kunda PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari ham o'quvchilarning amaliy bilim va ko'nikmalariga asoslangan yondashuvlarni afzal ko'rmoqda (OECD, 2021).

Loyihaviy yondashuvning muhim namoyon bo'lish shakllaridan biri bu Project-Based Learning (PBL) hisoblanadi. PBL — talabalarning real hayotdagi muammolarni tahlil qilish, echim ishlab chiqish va taqdim etish faoliyati orqali o'rganishini nazarda tutadi. So'nggi tadqiqotlarda bu yondashuv sun'iy intellekt, raqamli hamkorlik va masofaviy ta'lim muhitlarida ham keng tatbiq etilayotgani ko'rsatildi (Lanubile et al., 2023; Suciú et al., 2023).

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu yondashuv nihoyatda foydalidir. Chunki ular o'rgangan nazariy bilimlarini dala sharoitida, texnologiyalar bilan bog'liq amaliy masalalarda, loyihalar orqali



chuqurroq o'zlashtira oladi. Masalan, "Tomchilatib sug'orish tizimini ishlab chiqish", "Organik o'g'itlar bilan tajriba o'tkazish" yoki "Paxtani kasalliklardan himoya qilish bo'yicha innovatsion yechimlar" kabi mavzularda loyiha ishlari nafaqat bilim, balki amaliy tajriba beradi.

Bunday yondashuv talabaning nafaqat bilim darajasini, balki kasbiy tayyorgarligini, mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu sababli, ayniqsa texnik va amaliy sohalar uchun loyiha asosida o'qitish zamonaviy ta'limning muhim ehtiyojlaridan biri sifatida ko'rilmogda.

### **Uslublar (Methods)**

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil – loyihaviy yondashuvga oid ilmiy manbalar, maqolalar va xorijiy tajribalar o'rganildi. Xususan, Thomas (2000), Bell (2010), Larmer va Mergendoller (2015) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli – an'anaviy va loyihaviy yondashuvlar o'rtasidagi farq va o'xshashliklar aniqlashtirildi (Barrows, 1986).

Pedagogik kuzatuv – O'zbekiston va xorijdagi ta'lim muassasalarida loyihaviy yondashuvni qo'llayotgan o'qituvchilarning dars jarayonlari tahlil qilindi. Bu kuzatuvlar talabalarning loyihalarda ishtirok etish darajasi va o'rganish motivatsiyasiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi (Yunusova, 2021).

Empirik tadqiqot – OTM talabalariga hamda o'qituvchilarga so'rovnomalar tarqatildi. Ularning loyihaviy metodga bo'lgan qarashlari, samaradorlik haqidagi fikrlari tahlil qilindi.

Holat tahlili (case-study) – ayrim universitetlarda joriy etilgan loyihalar asosida real amaliy tajriba misollarida o'rganildi. Masalan, Toshkent davlat agrar universiteti, Xorazm filiali hamda AQSHdagi High Tech High maktablarida olib borilgan PBL tajribalari asos qilib olindi (Krajcik & Blumenfeld, 2006).

### **Natijalar**

Tadqiqot davomida loyihaviy yondashuvning quyidagi asosiy afzalliklari va xususiyatlari aniqlangan:

**Konstruktivistik yondashuv** – o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil izlanish orqali o'zi yaratadi (Vygotsky, 1978).

**Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim** – loyihalar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, samarali muloqot va jamoada ishlash kabi zamonaviy ko'nikmalar shakllanadi (Larmer & Mergendoller, 2015).

**Texnologiyalar bilan uyg'unlik** – raqamli platformalar (Padlet, Google Classroom, Trello) yordamida loyiha ishlari yanada samarali tashkil etiladi.

**Muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi** – guruhli ish jarayonida talabalar bir-biri bilan faol muloqot qilib, ijtimoiy ko'nikmalarini kuchaytiradi (Blumenfeld et al., 1991).

**Fanlararo integratsiya** – turli fanlardan o'rganilgan bilimlar asosida umumiy muammoni hal qilish malakasi shakllanadi.

Bundan tashqari, kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, loyiha asosida ishlagan guruhlarda talabalar mustaqil izlanishga ko'proq intilgan, ularning bilimni o'zlashtirish darajasi esa an'anaviy ta'lim guruhlariga nisbatan yuqori bo'lgan (Bell, 2010).

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi talabalar, masalan agrotexnika, sug'orish, chorvachilik va o'simlikshunoslik kabi fanlar asosida loyiha ishlab chiqib, bevosita amaliy tajriba orttirgan. Ayrim oliy ta'lim muassasalarida esa talabalar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar mahalliy fermer xo'jaliklarida sinovdan o'tkazilib, ijobiy natijalar bergan (Yunusova, 2021).

Masalan, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetida talabalar "Urban Sustainability" loyihasi doirasida muhandislik, iqtisod va ekologiya fanlari bo'yicha bilimlarni uyg'unlashtirib, real hayotga mos yechimlar ishlab chiqqan. Shunga o'xshash yondashuvni qishloq xo'jaligi ta'lim yo'nalishlarida ham keng tatbiq etish mumkin.

#### **4. Munozara (Discussion)**

Loyihaviy yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu metod orqali ular real muammolarni aniqlaydi, ularni tahlil qiladi va amaliy yechimlar ishlab chiqadi. Biroq, bu yondashuvni samarali joriy qilish uchun bir nechta muhim omillarni hisobga olish kerak.

Birinchidan, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. Loyiha asosida dars berish oson emas — bu yuqori darajadagi pedagogik mahorat, puxta rejalashtirish va resurslardan to'g'ri foydalanishni talab qiladi.

Ikkinchidan, baholash mezonlari aniq va tushunarli bo'lishi kerak. An'anaviy testlar o'rniga, PBL jarayonida ko'proq rubrikalarga asoslangan baholash tizimi, jamoaviy ish natijalari va yakuniy mahsulot taqdimoti muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, loyiha ishlarini amalga oshirishda vaqt va texnik ta'minot masalalari ham dolzarb bo'lib qoladi. Kompyuterlar, internet, raqamli platformalardan foydalanish imkoniyati bu yondashuvni yanada samaraliroq qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, PBL asosida ta'lim olgan o'quvchilar mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, ijodiy yondashish va hamkorlikda ishlash kabi zamonaviy kompetensiyalarni chuqur o'zlashtiradilar (Bell, 2010).

### **Xulosa**

Loyihaviy yondashuv — XXI asr ta'limining eng muhim va dolzarb metodologik yo'nalishlaridan biridir. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki uni real hayotda qo'llash, jamoa bilan ishlash, muammo yechish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish malakalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, loyiha asosida o'qitish kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda samarali vositadir. Ayniqsa, texnik va amaliy yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun bu metod ularning kasbiy tayyorgarligi, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda juda foydali.



Loyihaviy ta'limni ta'lim tizimiga to'laqonli tatbiq etish orqali biz nafaqat raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga, balki zamonaviy muammolarga yechim topa oladigan ijodkor, tashabbuskor va mustaqil shaxslarni shakllantirishga erishamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zheng, C., Yuan, K., Guo, B., Mogavi, R. H., Peng, Z., Ma, S., & Ma, X. (2024). Charting the Future of AI in Project-Based Learning: A Co-Design Exploration with Students.
2. Villan, F., & dos Santos, R. P. (2023). ChatGPT as Co-Advisor in Scientific Initiation: Action Research with Project-Based Learning in Elementary Education.
3. Lanubile, F., Martínez-Fernández, S., & Quaranta, L. (2023). Teaching MLOps in Higher Education through Project-Based Learning.
4. Suciu, D. M., Motogna, S., & Molnar, A.-J. (2023). Transitioning a Project-Based Course between Onsite and Online. An Experience Report.
5. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn?. Educational Psychology Review, 16(3), 235–266.

## **THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON TEACHING METHODOLOGY**

<sup>1</sup>**Qurbonova Kamola**

<sup>2</sup>**Xayrulloeva Farxunda**

<sup>3</sup>**Shukurova Rohatoy**

3rd year students Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

[ilmiyizlnuvchi@gmail.com](mailto:ilmiyizlnuvchi@gmail.com)

**Abstract:** *Technology has significantly transformed teaching methodologies, improving accessibility, engagement, and efficiency in education. This article explores the influence of digital tools on traditional and modern teaching approaches, highlighting their benefits and challenges in contemporary learning environments.*

**Key words:** *Technology, Teaching Methodology, Digital Learning, Online Education, Innovation in Education.*

### **INTRODUCTION**

Education has undergone a significant transformation due to technological advancements. Traditional chalk-and-board methods have evolved into interactive, digital-based teaching approaches that enhance student engagement and understanding. This article discusses the role of technology in modern teaching methodologies and its impact on learning outcomes.

**The Role of Technology in Teaching** Technology has revolutionized the teaching process in various ways, including:

1. **Digital Learning Platforms** – Online platforms such as Coursera, Udemy, and Khan Academy provide access to educational materials for learners worldwide. These platforms facilitate self-paced learning and interactive engagement.

2. **Smart Classrooms** – The integration of smartboards, projectors, and other digital tools in classrooms enables educators to present complex concepts visually, making lessons more engaging and effective.

3. **E-Learning and Online Courses** – The availability of online courses allows students to learn beyond geographical boundaries, providing flexibility in learning schedules.

4. **Artificial Intelligence in Education** – AI-driven tools, such as chatbots and virtual assistants, help automate administrative tasks, provide personalized learning experiences, and enhance student support systems.

Educational technology can be divided into three primary areas of use:

**Technology as a tutor**, where computers provide direct instruction and guidance to learners.

**Technology as a teaching aid**, supporting educators in lesson delivery.

**Technology as a learning tool**, enabling students to interact with educational content more effectively.

Although educational technology offers numerous benefits, research by Lowther et al. (2012) suggests that it has not yet been fully incorporated into the learning process, despite recommendations for its implementation. One contributing factor may be societal and institutional barriers. Leu et al. (2009) point out that children in low-income communities rarely use the Internet for educational purposes. However, studies by Gutnik et al. (2011) and Rideout (2011) indicate that children today are exposed to digital tools from an early age, which facilitates their adaptation to educational technologies in school. Greenhow et al. (2009) also found that a growing number of students use modern technological

devices. Additionally, extensive research by Kaufman (2004) and Lee et al. (2008) has explored the effects of educational technology on cognitive development.

When integrating educational technology, it is crucial to prioritize the educational value of tools and applications. Evaluating their effectiveness in knowledge acquisition, user engagement, and overall benefits is essential. Several scholars (Clements & Sarama, 2003; Glaubke, 2007; Dynarski et al., 2007) recommend assessing software programs based on five key factors:

- Their overall educational benefits.
- Their ability to engage students in the learning process.
- Ease of use and accessibility.
- The level of interaction between students and the software.
- Their capacity to track and assess student progress.

Educational technology is a systematic and well-organized method of applying modern technology to improve the quality of education by ensuring effectiveness, optimization, and precision. It involves carefully designing, implementing, and evaluating the learning and teaching process. This field supports the adoption of modern instructional strategies by incorporating teaching materials, methodologies, and the structured organization of educational activities, as well as fostering interactions among all participants in the learning environment. Although the term “teaching resources” is often used in this context, it does not fully equate to educational technology (Pedagoški leksikon, 1996).

The term "technology" is derived from the Greek word “techno,” which refers to skills, expertise, techniques, rules, and tools, while “logos” represents science, reasoning, knowledge, or intellectual engagement. There is no universally

agreed-upon definition of educational technology, as different nations use various terms such as educational equipment, audiovisual resources, and instructional technology.

These variations in terminology are mainly due to differing emphases on technical characteristics and modern tools rather than their actual pedagogical role in teaching. Consequently, perspectives on educational technology vary among educators, particularly between those in the social and technical sciences. Effective integration of educational technology requires expertise in multiple fields, including pedagogy, psychology, didactics, computer science, and information technology. Because of this interdisciplinary nature, scholars define educational technology in different ways based on their specific perspectives and requirements.

Despite its benefits, educational technology remains underutilized, primarily due to insufficient school resources, a lack of necessary equipment, and inadequate teacher training in effectively incorporating these tools into the learning process.

As computers are still not widely adopted in many schools, conventional teaching approaches remain prevalent. The dominant method is frontal instruction, where teachers engage with students in a structured format. However, a major limitation of this approach is that it does not accommodate individual learning speeds, which can result in reduced student involvement. In classrooms, students possess different levels of understanding, yet those who struggle with the material or those who surpass the average often do not receive adequate attention. This imbalance makes it challenging for teachers to fairly evaluate students and effectively impart knowledge to a diverse group of learners. Consequently,

teachers often aim for a middle-ground approach, ensuring that weaker students do not feel discouraged or left behind while unintentionally making lessons less stimulating for more advanced students.

With the advancement of information and communication technology, particularly computers, many researchers (Morrison et al., 2010) have examined the advantages of digital tools in comparison to traditional teaching methods. The discussion surrounding the benefits and drawbacks of conventional and technology-driven education has been ongoing for years. The period from 1967 to 1972 is considered a formative phase for educational technology, during which it became an established concept within pedagogy and educational sciences (Даниловић, 2004).

The incorporation of educational technology enables students to independently navigate their learning process. They can determine their own pace, revisit challenging concepts, and obtain instant feedback on assessments, facilitating better tracking of their progress. The use of interactive and multimedia-based content provides a substantial advantage over traditional learning by making education more engaging and flexible. Moreover, educational technology enhances the interaction between teachers and students, fostering a more dynamic and responsive learning environment.

Educational technology functions as an integrated system. To utilize it effectively, teachers must first possess a basic understanding of its application. However, mastering its use requires continuous professional development through conferences, training programs, scholarly resources, and seminars. One of the key obstacles to its widespread adoption is the lack of adequate school infrastructure,

insufficient teacher training, limited access to information, and a general lack of motivation among educators. Encouraging and supporting teachers in integrating educational technology is essential, as it boosts student engagement, enhances knowledge retention through visual, auditory, and kinesthetic learning methods, and promotes independent learning. Furthermore, the availability of modern technological tools at any time further encourages students to take an active role in their education.

## CONCLUSION

Technology has transformed teaching methodologies, making education more accessible, engaging, and personalized. However, it also presents challenges that need to be addressed to maximize its potential. By balancing traditional and digital methods, educators can create a more effective and inclusive learning environment that prepares students for the future.

Educational technology is playing an increasingly important role in classrooms. The current generation of students is naturally adept at using modern tools, which significantly contribute to their learning and cognitive growth. Therefore, incorporating educational technology into future curricula is vital. Its integration helps develop both skills and cognitive abilities, leading to more effective learning experiences. As technology continues to evolve, access to information and educational opportunities has expanded rapidly, especially through mobile devices.

## REFERENCES

1. Bates, A. W. (2019). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*.
2. Selwyn, N. (2020). *Education and Technology: Key Issues and Debates*.
3. Siemens, G. (2017). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*.
4. Даниловић, М. (2004). Recognition and development of “educational technology” as a scientific field and school subject, Zbornik Instituta za pedagogsku istrazivanja, (36):106-121, DOI:10.2298/ZIPI0436106D.
5. Morrison, G. R., Ross, S. M., Kemp, J. E., & Kalman, H. (2010). *Designing effective instruction: Applications of instructional design* (6th. Ed.), New York, NY: Wiley.
6. Pedagoški leksikon (1996). Beograd: Zavod za udžbenike i nastavna sredstva.

## **КАК ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ СТУДЕНТОВ К УРОКАМ «РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ»**

**Чориева Мадина Алиевна**

Доцент кафедры «История и филология»  
Азиатского международного университета

**Шадиева Ситора**

Студентка 1 курса «Психология»  
Азиатского международного университета

***Аннотация:** в статье анализируются современные методы и подходы к формированию интереса студентов к урокам религии. Рассматриваются причины снижения мотивации молодежи к изучению религиозных дисциплин и предлагаются эффективные педагогические стратегии: использование интерактивных форм обучения, интеграция цифровых технологий, связь с актуальными проблемами современного общества, включение культурологических и творческих заданий, а также создание атмосферы уважительного диалога. Особое внимание уделяется индивидуализации обучения и развитию критического мышления. Практические рекомендации, приведённые в статье, предназначены для преподавателей и могут быть использованы для повышения вовлеченности студентов в образовательный процесс по религиоведению.*

***Ключевые слова:** религиоведение, мотивация студентов, религиозное образование, педагогические методы, интерактивные формы обучения, цифровые технологии, культурологический подход, творческие задания, межкультурный диалог, критическое мышление, вовлеченность,*

*индивидуализация обучения, религиозная грамотность, современное образование, молодежь.*

## **HOW TO INTEREST STUDENTS IN THE LESSONS OF "RELIGIOUS STUDIES"**

**Chorieva Madina Alievna**

Associate Professor of the Department of "History and Philology"

Asian International University

**ShadIeva Sitora**

1st year student of "Psychology"

Asian International University

**Abstract:** *the article analyzes modern methods and approaches to the formation of students' interest in religion lessons. The reasons for the decline in young people's motivation to study religious disciplines are considered and effective pedagogical strategies are proposed: the use of interactive forms of learning, the integration of digital technologies, connections with current problems of modern society, the inclusion of cultural and creative tasks, as well as the creation of an atmosphere of respectful dialogue. Particular attention is paid to the individualization of learning and the development of critical thinking. Practical recommendations given in the article are intended for teachers and can be used to increase student involvement in the educational process in religious studies.*

**Keywords:** *religious studies, student motivation, religious education, pedagogical methods, interactive forms of learning, digital technologies, cultural*

*approach, creative tasks, intercultural dialogue, critical thinking, involvement, individualization of learning, religious literacy, modern education, youth.*

Религия в Узбекистане занимает особое положение: страна характеризуется богатым культурным наследием, где ислам традиционно доминирует, но также присутствуют и другие религиозные общины. Для молодёжи, в частности студентов, религия становится не только частью семейных и общественных традиций, но и фактором, влияющим на формирование личных ценностей, идентичности и мировоззрения. Узбекистан — светское государство, где Конституция гарантирует свободу совести и вероисповедания. В то же время ислам, прежде всего суннитского толка, глубоко укоренён в быту, культуре, семейных отношениях, национальных праздниках и обычаях. В последние десятилетия наблюдается рост интереса к религиозным вопросам среди молодёжи: открываются исламские образовательные учреждения, становится популярной литература на религиозные темы, развивается межкультурный и межрелигиозный диалог.

Современное религиоведение как учебная дисциплина сталкивается с рядом вызовов: потеря интереса молодежи к традиционным формам образования, конкуренция с другими, более прагматичными дисциплинами, влияние цифровой среды и информационной перегруженности. Однако именно уроки религии дают уникальную возможность познакомить студентов с культурным многообразием, научить уважению к различным мировоззрениям, воспитать в них критическое мышление и способность вести конструктивный диалог.

Возникает вопрос: **как сделать уроки религии не только полезными, но и по-настоящему интересными для студентов?** Рассмотрим современные методические подходы, примеры интерактивных заданий и реальные педагогические приемы, которые доказали свою эффективность.

Первым шагом к формированию интереса является демонстрация актуальности религиозных тем. Важно показывать, как религиозные идеи и традиции влияют на культуру, политику, искусство и повседневную жизнь людей. Анализ современных событий, связанных с религией, обсуждение актуальных вопросов (например, межкультурный диалог, вопросы толерантности, свободы совести) делает материал живым и значимым для студентов.

**1. Связывайте религиозные темы с реальной жизнью и современностью.** Показывайте, как религия влияет на культуру, искусство, музыку, кино, политику, семейные традиции, повседневные решения людей. Примеры из новостей, фильмов или личного опыта всегда делают материал ближе.

## **2. Используйте интерактивные форматы обучения.**

- **Дискуссии** по актуальным и спорным вопросам (толерантность, свобода совести, межкультурный диалог).
- **Ролевые игры** (симуляция межрелигиозных диалогов, анализ жизненных ситуаций с разных религиозных позиций).
- **Проектная деятельность** (создание презентаций, постеров, мини-фильмов о религиях мира).

• **Интерактивные тесты, викторины, кейсы** — их можно проводить онлайн или офлайн.

**3. Включайте элементы культуры и искусства.** Просмотр и обсуждение фрагментов фильмов, музыки, литературы, связанных с религиозными темами; анализ архитектуры храмов, иконографии, традиций.

**4. Приглашайте гостей и практиков.** Организуйте онлайн-встречи или интервью с представителями разных религиозных общин, чтобы студенты могли напрямую задать вопросы.

**5. Используйте цифровые технологии.**

• Виртуальные экскурсии по знаменитым религиозным памятникам.

• Интерактивные карты распространения религий.

• Использование платформ (например, Kahoot, Google Forms) для опросов и быстрых проверочных работ.

**6. Давайте свободу выбора.** Предлагайте студентам самим выбирать темы для эссе, проектов или презентаций — пусть они исследуют то, что им по-настоящему интересно.

**7. Создайте атмосферу диалога и уважения.** Очень важно, чтобы на уроках религиоведения не было осуждения и навязывания взглядов. Ключ — открытость и уважительное обсуждение разных мнений.

**8. Применяйте сравнительный подход.** Покажите не только различия, но и сходства между религиозными традициями, их вклад в мировую культуру, науку, мораль.

**9. Истории и биографии.** Истории жизни выдающихся людей, связанных с религией, а также современных примеров — часто вдохновляют и мотивируют студентов.

Интерес к урокам религии не возникает сам по себе — он формируется через активное, творческое и осмысленное участие студентов в образовательном процессе. Использование современных методик, актуальных тем, интерактивных и творческих форм обучения, а также уважительное отношение к взглядам каждого студента способствуют формированию устойчивого интереса к религиоведению. Таким образом, преподаватель становится не только источником знаний, но и модератором живого диалога о смыслах, ценностях и культурных традициях, объединяющих людей разных эпох и цивилизаций.

### **ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ССЫЛКИ**

1. Худякова, Г. П. (2009). РЕЛИГИОВЕДЕНИЕ: НОВАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СФЕРА В ТЮМЕНСКОМ РЕГИОНЕ. In НЕФТЬ И ГАЗ ЗАПАДНОЙ СИБИРИ (pp. 41-44).
2. Давронова, З. Б. (2024). ВВЕДЕНИЕ НОВЕЙШИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА). In The World Of Science and Education, (20 сентябрь ЮН), 77-82.
3. Писманик, М. (2022). Религиоведение. Litres.

**O'ZBEKISTONDA EKOLOIK MUAMMOLARNI BARTARAF  
ETISHING KONSEPTUAL ASOSLARI**

**Fozilxon Shukurulloxonov**

**Og'abek Qurbonov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
2-son Davolash ishi fakulteti talabasi

[fozilxon.sh@icloud.com](mailto:fozilxon.sh@icloud.com)

***Annotatsiya:** mazkur maqolada Respublikamizda bugungi kundagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish uchun keng ko'lamda olib borilayotdan ishlar, Orol va orol bo'yi atrof-muhitini muhofaza qilishda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan chora tadbirlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ekologiya, ijtimoiy-ekotizm, Orol dengizi, geologiya, qo'riqxonalar, milliy bog'lar, atrof muhitni muhofaza qilish.*

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УСТРАНЕНИЯ  
ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Фозилксон Шукуруллахонов**

**Огабек Курбанов**

Ташкентская медицинская академия  
Студентка факультета лечебного дела № 2

[fozilxon.sh@icloud.com](mailto:fozilxon.sh@icloud.com)

***Аннотация:** в статье рассматриваются современные экологические проблемы нашей республики, масштабные работы, проводимые по их устранению, а также меры, принимаемые нашим правительством по охране окружающей среды Аральского моря и Приаралья.*

***Ключевые слова:** экология, социо-экология, Аральское море, геология, заповедники, национальные парки, охрана окружающей среды.*

**CONCEPTUAL BASIS OF ELIMINATING ECOLOGICAL  
PROBLEMS IN UZBEKISTAN**

**Fozilkhon Shukurulloxonov**

**Agabek Kurbonov**

Tashkent Medical Academy

Student of the Faculty of Medical Sciences No. 2

[fozilxon.sh@icloud.com](mailto:fozilxon.sh@icloud.com)

**Annotation:** *this article covers current environmental problems in our Republic and the large-scale work being carried out to eliminate them, as well as measures taken by our government to protect the environment of the Aral Sea and the Aral Sea.*

**Keywords:** *ecology, socio-ecology, Aral Sea, geology, reserves, national parks, environmental protection.*

**KIRISH**

Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilash

eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'tgan asrning oxiriga kelib inson

bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof-muhit ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutdi.

Respublikamiz ekologiyasini muhofaza qilish va uni yaxshilash uchun, ekologik tanazzulning oldini olish, yurtimizning qadimda ma'lum bo'lgan ekologik holatini qayta tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.

Hozirda inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ta'siri yoki yomon munosabatda bo'lish natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar ko'payishiga olib ketdi

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirda Respublikamiz yirik sanoat va agrar mintqa bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, beosferaviy muvozanatni saqlash;
- ✓ O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barq arorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish;
- ✓ regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma – xiligini saqlash.
- ✓ Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol

dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash.

Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitargigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar ham maqsadlardan biri hisoblanadi. Orol dengizining qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontenentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to'liq qurib qolish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi. sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi.

Qurigan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to'lib bormoqda. Orol bo'yining sanitar epidemiologik ahvoli nihoyatda og'irlashmoqda. Agar zudlik bilan tabiatda vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudodning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz,

tabiat haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz lozim. Prezidentimizning 2017-yil 12-iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O'zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o'tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, Ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhining istiqboldagi vazifalari aniq ko'rsatib o'tildi.

### **XULOSA**

Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratningjamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni aholining iste'mol, maishiy va boshqa ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish qismining ijro etilishi yuzasidan Sog'liqni saqlash hamdaUy-joy kommmunal xizmat ko'rsatish vazirliklari, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitalari axboroti yuzasidan parlament eshituvlari bo'lib o'tdi. Ayni chog'da "Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo'q qilish ustidan nazorat qilish to'g'risida"gi Bazel konvensiyasi bajarilishi holati o'rganilib, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi eshituvi tashkil etildi. Ko'rinib

turibdiki, oldimizda turgan vazifalar nihoyatda zalvorli. Ularni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish har birimizdan bor bilim va mahoratimizni ishga solishni, yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida yonib yashashni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. Qayumov A.A., Raxmonov R.N., Egamberdieva L.SH., Xamroqulov J.H.  
Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. – T.: "Iqtisodiyot", 2014.
4. Nigmatov A.N. ekologiyaning nazariy asoslari. ekologiya va atrof muhit Muhofazasi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma.—mas'ul muharrir b.f.d. A.S.Yuldashev — T., 2013.
5. Ergasheva, Y. A., Vasieva, D. I., & Murtazova, S. B. (2019). Political persecutions and ideological pressure on the creative intellectuals of Uzbekistan in post-war decades. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8 (2 S10).

**IBRAYIM YUSUPOVTIN FILOSOFIYALIQ LIRIKASINDA  
EKZISTENCIYALIQ MOTIV**

**Xamdullaeva Zliyx**

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti magistrantı

Ibrayım Yusupovtın kóplegen qosıqlarında ómir hám ájel, waqıt hám insan, eske túsiriw hám joǵaltıw, muhabbat hám ruwxıy azap sıyaqlı temalar filosofiyalıq-ekzistenciallıq ruwxta sáwlelendirilgen. Onın “Úmit aǵashı” qosıǵı buǵan jaqsı mısál bola aladı. Bul qosıqta insan ómirindegi ruwxıy qıyınshılıqlar, ekzistencial azaplar hám jasawǵa bolǵan erk-ıqtıyardın tereń filosofiyalıq sáwleleniwi orın alǵan. Qosıqta úmit ideyası pútkil insan ómirin qushaǵına alatuǵın ruwxıy tiyanısh sıpatında talqılanadı. Avtor ekzistencializmniń tiykarǵı noqatları – máni izlew, úmitsizlikke qarsı gúres, insan erki, táǵdirge qatnasıq sıyaqlı máselelerdi qosıq usılında bayan etedi.

Qıyamay shın jarqabaǵında,  
Maxluq izi túspegen jerde,  
Aǵash tuqımı hesh bir waǵında  
Júrek etip óspegen jerde,  
Alpinisttey asılıp tasqa,  
Tamırları tawǵa tırmasıp,  
Boyın sozıp jaqtı quyashqa,  
Ósedı sol umit aǵashı.

Qosıqtın bul qatarlarındagı úmit túsiniǵı ayrıqsha ekzistencial kúsh sıpatında súwretlengen. Ol ápiwayı turmıs mákanı emes, al "maqluq izi túspegen", yaǵnıy insan ruwxı hátte barmaytuǵın, ruwxıy jaqtan qıyın hám azaplı bir noqatta júzege keledi. Bul jerde avtor insan ómirindegi úmit barlıq waqıtta qolaylı jaǵdayda payda

bola bermeytug'ının, al ásirese ruwxıy qıyınshılıq hám azap paytında júz beretug'ın kúshli ishki háreket ekenin kórsetedi.

"Ağash tuqımı hesh bir wağında / Júrek etip óspegen jerde..." deydi.

Bul qatarlarda filosofiyalıq jantasıw kúshli sezilip turadı – insan úmiti ruwxıy azaplar hám ishki gúresler jağdayında jetilisedi, yağnıy tek gána quwanış emes, al azap arqalı da mání tabadı. Bul – ekzistencializmniń "azap arqalı barlıqtı ańlaw" degen oraylıq ideyalarından biri.

Qosıqta insan ómirindegi tábiyğıy hám jámiyetlik sınaqlar – "saratan", "dawıl", "tóbeden tas qulağanda" sıyaqlı súwretlewler arqalı berilgen. Bul jağdaylar tek gána sırtqı tásirler emes, al insan qálbinde ótkerilgen ishki qıyınshılıqlardıń nıshanlı kórinisi. Avtordıń filosofiyalıq juwmağı sonnan ibarat, insan ómiri bárqulla sınaladı, biraq qanday da bir ruwxıy tayanış (bul jerde "úmit") arqalı insan bul sınaqlardan óte aladı.

Órtengende hújdan azabına,

Basıma is túsken wağında,

Úmitsizlik jarqabağına

Qáwipli ayaq basqan wağında,- delinedi. Bul qatarlarda úmitsizlik ekzistencial sebeplerden biri sıpatında berilgen. Insan ómirindegi mánissizlik (absurd) momenti, ózligin joğaltıw, "jarqabaq" – tereńlik, túskinlik – filosofiyalıq tolqında berilgen.

Qosıqta bir neshe márte táğdir túsiniği tilge alınadı. Biraq avtor táğdirdi passiv qabıl etpeydi, al óz erki, sabırı hám ruwxıy kúshi menen onı jeńiwge umtıladı.

Onıń tik jar tasqa asılıp,

Jalıqpastan jasap turǵanı,  
Táǵdirge tán bermey bas urıp  
Jalınbastan jasap turǵanı.  
Kóterilip iyilgen basım,  
Sonda saǵan usaǵım keler.  
O japakesh úmit aǵashı,  
Seni kórsem, jasaǵım keler!

Mine, bul qatarlarda qosıq úmittiń adamǵa qanday kúsh baǵıshlaytıǵınlıǵı, jasaw qálewin qayta oyatatıǵınlıǵı haqqında sóz etedi. Úmit insanniń ruwxıy qayta tuwılıwına sebepshi boladı, "jasaǵım keler" degen tilek usıǵan megezeydi.

Avtordiń "úmit"ke múrajaátı, onıń qálbinde sezgen azaplı máhállerde "úmit aǵashı"na júzleniwi – bul insanniń ruwxıy qutılıw ushın ishki gúresi. Bul – ekzistencial ádebiyatqa tán ruwxıy process bolıp, insan ómirindegi túpkilikli úmit, dúnyalıq jeńilisler aldındaǵı abıraylı qarsılıqtı sáwlelendiredi.

Sarı wayımnıń sarsıǵın  
Aydap shıǵar kewilxanamnan.  
Jasaw ushın sharshamaytuǵın  
Kúsh bergendey boladı maǵan.  
Niyetiń haq, hújdanıń taza,  
Nege onsha bolasań jaltań?  
Dúnya isi bárha biymaza,  
Úmit úzbe, umitsiz-shaytan. -  
Dep násiyat berip turganday,  
Keńeygendey bolar tar dúnya.

Qaytgan teńiz qayta tolgʻanday

Tolqı tası aqqanday dʻrya.

Bul qatarda filosofıyalıq sorawlar ashıq qoyıladı: insan ʻomirinde hadal niyet hám pák hújdan bolsa da, nege onda qorqınış bar? Bul soraw janlı azaplar, ishki qarama-qarsılıqlardıń poeziyalıq sáwlesi bolıp tabıladı.

Ibrayım Yusupovtıń "Úmit aǵashı" qosıǵında ekzistencializmniń tiykarǵı filosofıyalıq noqatları - jalǵızlıq, úmitsizlik, erk, ruwxıy gúres, insanniń ruwxıy qayta tuwılıwı sıyaqlı temalar tereń jaqtılandırılǵan. Avtor úmit ideyasın insanniń filosofıyalıq barlıǵındaǵı oraylıq noqat sıpatında talqılaydı. Bul qosıq tek ǵana bir shayırdıń ishki dártlerin emes, al pútkil adamzattıń ruwxıy halatın sáwlelendiretuǵın poetikalıq-filosofıyalıq shıǵarma bolıp esaplanadı.

### **Paydalanılǵan ádebiyatlar**

1. Turdibaev Q. Házirgi qaraqalpaq poeziyasında janrlıq-stillik izlenisler, qaharman probleması (1990–2020-jıllar mısasında). – Nókis, 2023.
2. Bibler V.S. M.M.Baxtin, ili Poetika kul'turı. – M.: Progress, 1991.
3. Novikov V. Dva znacheniya ponyatiya «liricheskiy geroy» i ix rol' dlya postroeniya sovremennoy teorii liricheskogo subyekta.
4. Yusupov I. Tańlamalı shıǵarmalarınıń eki tomlıǵı. II tom. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1992.

## **QURILISHDA INKLYUZIV UY-JOYLAR QURILISHDA XALQARO TAJRIBALAR**

**Maxsudov Olimjon Maxsud o'g'li**  
**“O‘zshahar qurilish invest” MCHJ mutahasisi**

***Annotatsiya:** maqolada turli mamlakatlarning inklyuziv uy-joylar qurilishidagi tajribalari tahlil qilinadi. Bunda Niderlandiya, Rossiya, Qozog‘iston va boshqa davlatlarning amaliyoti o‘rganilgan. Xalqaro tajriba asosida uy-joy siyosatida inklyuzivlikni ta‘minlash yo‘llari va moliyalashtirish mexanizmlari ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada O‘zbekiston sharoitiga mos ravishda qaysi yondashuvlar va mexanizmlarni joriy qilish mumkinligi yuzasidan xulosalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** inklyuziv uy-joylar, xalqaro tajriba, uy-joy siyosati, subsidiya, ipoteka, Niderlandiya, Rossiya, Qozog‘iston, moliyalashtirish, ijtimoiy tenglik.*

## **МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ СТРОИТЕЛЬСТВА ИНКЛЮЗИВНОГО ЖИЛЬЯ**

**Максудов Олимджон Максуд угли**  
 Специалист ООО “О‘zshahar qurilish invest”

***Аннотация:** в статье анализируется опыт разных стран в строительстве инклюзивного жилья. Изучался опыт Нидерландов, России, Казахстана и других стран. На основе международного опыта будут обозначены пути и механизмы финансирования обеспечения инклюзивности жилищной политики. В статье сделаны выводы о том, какие подходы и механизмы могут быть внедрены в соответствии с условиями Узбекистана.*

**Ключевые слова:** инклюзивное жилье, международный опыт, жилищная политика, субсидия, ипотека, Нидерланды, Россия, Казахстан, финансирование, социальное равенство.

## **INTERNATIONAL EXPERIENCES IN CONSTRUCTION OF INCLUSIVE HOUSING**

**Makhsudov Olimjon Maksud ugli**  
Specialist of “O‘zshahar qurilish invest” LLC

**Abstract:** the article analyzes the experiences of various countries in the construction of inclusive housing. The practice of the Netherlands, Russia, Kazakhstan and other countries is studied. Based on international experience, ways and financing mechanisms for ensuring inclusiveness in housing policy are indicated. The article provides conclusions on which approaches and mechanisms can be introduced in accordance with the conditions of Uzbekistan.

**Keywords:** inclusive housing, international experience, housing policy, subsidy, mortgage, Netherlands, Russia, Kazakhstan, financing, social equality.

### **1. Kirish**

Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va ijtimoiy tenglik talablarining kuchayishi sharoitida inklyuziv uy-joy qurilishi global miqyosda dolzarb masalaga aylanmoqda. Inklyuziv uy-joylar nafaqat jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, balki kam ta'minlangan oilalar, yoshlikdan mustaqil yashash istagida bo'lgan shaxslar va boshqa ehtiyojmand guruhlar uchun ham barqaror va qulay yashash sharoitlarini yaratishga qaratilgan.

Xalqaro adabiyotlarda inklyuziv uy-joy qurilishi ko'pincha nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar kontekstida ham ko'rib chiqiladi. “Uy-joy siyosatida “inklyuzivlik” tushunchasi qadriyatlar tizimining ajralmas

qismiga aylanib, moliyaviy va ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda" (Elsinga M. va boshq., 2020). Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Niderlandiyada uy-joy siyosati "Design for Values" (DfV) yondashuviga asoslanib, har bir qurilish loyihasida inson huquqlari, ekologik barqarorlik va jamoaviy rivojlanishga e'tibor qaratiladi (Elsinga M. va boshq., 2020).

Rossiya tajribasi ham inklyuziv uy-joy qurilishida qiziqarli ko'rsatkichlarga ega. "Uy-joy va shahar muhiti" milliy loyihasi orqali subsidiyalangan ipoteka dasturlari joriy qilinib, uy-joy narxini aholining moliyaviy imkoniyatlariga moslashtirishga harakat qilindi (Glumnushina P.S., 2022). Qozog'istonda esa "Nurly Zher" dasturi asosida ijtimoiy turar joylar qurilishi va kam ta'minlangan oilalarni uy-joy bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan (Rodina Y.E., 2019).

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv uy-joy siyosatining muvaffaqiyati moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik va barqaror qurilish texnologiyalarini joriy etishga bevosita bog'liq. BMT va Jahon banki ekspertlari ham "dunyoda arzon va inklyuziv uy-joylar tanqisligi yiliga 650 milliard dollarlik investitsiya bo'shlig'ini yuzaga keltirayotganini" ta'kidlaydi (McKinsey Global Institute, 2014).

Ushbu maqolada inklyuziv uy-joylar qurilishidagi ilg'or xalqaro tajribalar o'rganiladi, ularning asosiy xususiyatlari va O'zbekiston sharoitida qanday moslashtirish imkoniyatlari mavjudligi tahlil qilinadi.

## **2. Metodologiya**

Tadqiqotda xalqaro tajribalarni o'rganish uchun komparativ tahlil va tizimli yondashuv metodlari qo'llanildi. Niderlandiya, Rossiya va Qozog'iston

mamlakatlarning rasmiy hisobotlari, ilmiy maqolalari va BMT, Jahon banki kabi tashkilotlarning tavsiyalari asos qilib olindi. Shuningdek, turar joy siyosati va qurilishni moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilindi. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarning tatbiq imkoniyatlari baholandi.

### 3. Natijalar

Inklyuziv uy-joylar qurilishidagi xalqaro tajribalarni o'rganish natijasida turli mamlakatlarning o'ziga xos yondashuvlari va natijalari aniqlangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli inklyuziv qurilish siyosati har bir davlatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga mos tarzda shakllangan. Jumladan, Niderlandiya tajribasida "Design for Values" (DfV) yondashuvi asosida qurilish loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda inson qadri, ijtimoiy barqarorlik va ekologik tamoyillar asosiy o'rinni egallaydi. 2023-yil yakuniga ko'ra, Niderlandiyada barqaror va inklyuziv uy-joy loyihalari sezilarli darajada kengaytirildi.

Rossiya Federatsiyasida "Uy-joy va shahar muhiti" milliy loyihasi doirasida subsidiyalangan ipoteka dasturi joriy etilgan bo'lib, bu orqali aholining moliyaviy kirish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. 2023-yil yakunida Rossiyada 95 million kvadrat metr yangi uy-joy foydalanishga topshirildi. Davlat tomonidan ipoteka foizlarini subsidiyalash va qurilish kompaniyalariga imtiyozli shartlar yaratish orqali inklyuziv uy-joylar soni oshirilmoqda.

Qozog'iston Respublikasida esa "Nurly Zher" dasturi asosida kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun ijtimoiy turar joylar qurilishi kengaytirildi. 2023-yil natijalariga ko'ra, mamlakatda 17,8 million kvadrat metr uy-joy qurilib, 2022-yilga nisbatan 13,8 foizlik o'sishga erishildi. Dastur doirasida subsidiya va

ipoteka mexanizmlari orqali aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun qulay uy-joylar taqdim etilmoqda.

Ushbu natijalarni quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

| <b>Ma<br/>mlakat</b> | <b>Inklyuziv yondashuv</b>                             | <b>2023-yil natijasi</b>                                            |
|----------------------|--------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Nide<br>rlandiya     | Design for Values (DfV)<br>asosida loyihalashtirish    | Barqaror va inklyuziv<br>uy-joy loyihalari kengaytirildi            |
| Ross<br>iya          | Subsidiyalangan ipoteka<br>dasturi va milliy loyiha    | 95 mln m <sup>2</sup> yangi uy-joy<br>foydalanishga topshirildi     |
| Qoz<br>og'iston      | Nurly Zher dasturi orqali<br>ijtimoiy uy-joy qurilishi | 17,8 mln m <sup>2</sup> uy-joy<br>qurilib, 13,8% o'sish qayd etildi |

Yuqoridagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv uy-joylar qurilishini rivojlantirishda davlat tomonidan moliyaviy ko'mak va ijtimoiy ehtiyojlarga mos rejalashtirish strategik ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy sharoitlari va aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqqan va amalda tatbiq etgan. O'zbekiston uchun esa ushbu ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirib joriy qilish katta ahamiyat kasb etadi.

#### **4. Munozara**

Inklyuziv uy-joylar qurilishi bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun bir necha asosiy shartlar bajarilishi zarur. Birinchidan, moliyalashtirish mexanizmlarining moslashuvchanligi va qulayligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Rossiyada subsidiyalangan ipoteka dasturi orqali uy-joy olish imkoniyatlari kengaytirilgan

bo'lsa, Qozog'istonda davlat buyurtmasi asosida qurilgan ijtimoiy uy-joylar orqali ehtiyojmand qatlamlar qamrab olingan. Niderlandiyada esa moliyalashtirish barobarida loyihalashtirish jarayonida ham ijtimoiy qadriyatlar, inson huquqlari va ekologik talablar inobatga olingan. Bu yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv qurilish nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlashni, balki shaharsozlik va ijtimoiy siyosatning uyg'unlashgan yondashuvini talab qiladi.

Ikkinchidan, inklyuziv uy-joylar qurilishida davlat va xususiy sektor hamkorligi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Rossiya va Qozog'iston tajribasida davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar natijasida xususiy qurilish kompaniyalari ijtimoiy turar joylar qurilishida faol ishtirok etgan. Bu ham moliyaviy resurslar, ham qurilish quvvatlaridan samarali foydalanish imkonini bergan. Shuningdek, subsidiya va ipoteka dasturlari orqali aholining moliyaviy imkoniyatlari oshirilgan.

Uchinchidan, uy-joylarning faqat qurilish hajmi emas, balki ularning yashash sifati ham muhim rol o'ynaydi. Niderlandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-inklyuziv uy-joylar faqat kvadrat metr ko'paytirish emas, balki inson salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yashash muhitini yaratishni talab qiladi. Bu jihat O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, qurilish loyihalarida nafaqat arzonlik, balki yashash sifati, transport infratuzilmasi va jamoat xizmatlari sifati kabi omillar ham inobatga olinishi zarur.

Xalqaro tajribani o'rganishdan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda inklyuziv uy-joy qurilishini rivojlantirish uchun moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, qurilish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, shaharsozlik

yondashuvini ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

### 5.Xulosa

Inklyuziv uy-joylar qurilishini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sish va urbanistik barqarorlikni mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Niderlandiya, Rossiya va Qozog'iston tajribalari shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar, barqaror shaharsozlik siyosati va davlat-xususiy sherikligi inklyuziv qurilishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida ham ipoteka va subsidiya dasturlarini kengaytirish, ekologik va ijtimoiy me'zonlarga asoslangan uy-joy loyihalarini rivojlantirish zarur. Shuningdek, qurilish jarayonlarida fuqarolarning ehtiyojlari va yashash sifati mezon sifatida asosiy o'ringa qo'yilishi kerak. Inklyuziv uy-joylar qurilishi orqali nafaqat ehtiyojmand qatlamlar uchun yashash sharoiti yaxshilanadi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy farovonlik ham mustahkamlanadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Elsinga M., Höekstra J., Siedegi M., Taebi B. К устойчивому и инклюзивному жилью: жилищная политика как проектирование ценностей // Sustainability. – 2020. – Т. 12. – №5. – С. 1–15.
2. Glumnushina P.S. Совершенствование государственной политики в сфере строительства жилья для потребностей граждан с учетом принципов инклюзивности: диссертация ... канд. экон. наук. – Москва, 2022. – 189 с.

3. Rodina Y.E. Эколого-ориентированный инвестиционный потенциал строительного комплекса: диссертация ... канд. экон. наук. – Москва, 2019. – 165 с.
4. McKinsey Global Institute. A blueprint for addressing the global affordable housing challenge. – McKinsey & Company, 2014. – 48 p.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сонли фармони. – [Elektron resurs] – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>.
6. Rossiya Federatsiyasi Federal statistika xizmati. Объемы жилищного строительства в России за 2022 год. – [Elektron resurs] – URL: <https://rosstat.gov.ru>.
7. Qozog‘iston Respublikasi Milliy statistika byurosi. Uy-joy qurilishi natijalari – 2023. – [Elektron resurs] – URL: <https://stat.gov.kz>.
8. BMT-Habitat. World Cities Report 2022: Envisaging the Future of Cities. – United Nations Human Settlements Programme, 2022. – 342 p.
9. World Bank. Housing for All: Delivering Affordable Housing Solutions. – Washington, DC: World Bank Group, 2022. – 128 p.

**KAMOLOTINING MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA KAMOL  
TOPISHIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Xomidov Muhammadzakiy Anvarovich**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

***Anotatsiya:** mazkur tezisda shaxs kamoloti jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari milliy qadriyatlar asosida o'rganiladi. Tadqiqotda shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari, milliy qadriyatlarning shaxs rivojiga ta'siri, yoshlar ongida ma'naviy-axloqiy qarashlarning shakllanishi va bu jarayonni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, madaniy merosga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat kabi omillar asosida shaxsda ijobiy psixologik fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shaxs tarbiyasi, ta'lim-tarbiya tizimi va psixologik amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

***Kalit so'zlar:** shaxs, kamolot, ijtimoiy munosabat, qadriyat, metod, vosita, tasavvur.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК МАЛЫШЕЙ ЗРЕЛОСТИ  
НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

**Хомидов Мухаммадзакый Анварович**

Магистрант Азиатского Международного Университета

***Аннотация:** в диссертации изучаются социально-психологические особенности процесса развития личности на основе национальных ценностей. В исследовании анализируется взаимодействие личности с социальной средой, влияние национальных ценностей на развитие личности, формирование духовно-нравственных взглядов в сознании молодежи, пути*

совершенствования этого процесса. Раскрываются механизмы формирования позитивных психологических качеств личности, в основе которых лежат такие факторы, как национальная идентичность, патриотизм, уважение к культурному наследию, социальная ответственность. Результаты исследования включают научные и практические рекомендации, которые могут быть использованы в личностном развитии, системе образования и психологической практике.

**Ключевые слова:** личность, зрелость, социальные отношения, ценность, метод, инструмент, воображение.

## **IMPROVEMENT OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PERSONAL MATURITY ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES**

**Khomidov Muhammadzakiy Anvarovich**

Master's student of the Asian International University

**Abstract:** *this thesis studies the socio-psychological features of the process of personal maturation on the basis of national values. The study analyzes the interaction of the individual with the social environment, the influence of national values on personal development, the formation of spiritual and moral views in the minds of young people, and ways to improve this process. Mechanisms for the formation of positive psychological qualities in a person based on factors such as national identity, patriotism, respect for cultural heritage, and social responsibility are revealed. The results of the study include scientific and practical recommendations that can be used in personal upbringing, the educational system, and psychological practice.*

**Keywords:** *personality, maturity, social attitude, value, method, tool, imagination.*

Bugungi globallashuv va axborot tezkor almashinuvi sharoitida har bir jamiyatning rivojlanish darajasi, avvalo, uning a'zolarining ma'naviy-axloqiy yetukligi, ijtimoiy ong va psixologik barqarorligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, shaxs kamoloti masalasi har doimidan ham dolzarb bo'lib, u milliy qadriyatlar asosida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Insonning to'laqonli rivojlanishi, hayotga bo'lgan munosabati va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi asosiy omillardan biri — bu uning shaxs sifatida takomillashuvidir. Milliy qadriyatlar har bir insonda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, yoshlarda bu qadriyatlar asosida to'g'ri dunyoqarash, axloqiy mezonlar va shaxsiy pozitsiyani qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiya va pedagogika fanlari bunday rivojlanishni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy nuqtai nazardan ham o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Shunday ekan, shaxs kamolotining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish va uni milliy qadriyatlarga tayanib takomillashtirish masalasi zamonaviy ilmiy izlanishlar markazida turibdi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchi-yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos ham bo'ladi. O'quvchi-yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz:

1. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar:

- o'quvchining muomala madaniyati;

- o'quvchining ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar;
- o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – dolzarb vazifa;
- ma'naviyat tushunchasi;
- Vatan tuyg'usi – muqaddas tuyg'u;
- o'quvchining tashqi ko'rinishi va uning ichki dunyosi;
- kitoblar – bilim va ma'naviyat manbai;
- o'quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirish;
- mustaqillik nashidalari;
- yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati; fidokor yoshlar qanday bo'lishi kerak?;
- ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz sarchashmalari;
- zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma'naviyat;
- Amir Temur yoshlar kamoloti haqida;
- Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari;
- mustaqil o'zbekiston jahon nigohida;
- o'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustivor yo'nalishlari;
- yuksak madaniyat va ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori;
- tarix – millat ma'naviyatining negizi kabi darslarni uyushtirish.

Bunda turli fanlardan mavzularini o'tishda o'sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi

mumkin. Ma'naviy-axloqiy mazmundagi suhbatlarni o'tkazishning bosh vazifasi ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, turli hodisalarga nisbatan o'quvchilarda muayyan munosabatni qaror toptirish, ularning mazmuniga to'g'ri baho berishga o'rgatishdan iboratdir. Ma'naviy- axloqiy suhbatlar o'quvchilarda axloqiy tasavvur, tushuncha, bilimlarni chuqurlashtiruvchi, aniqlashtiruvchi yangi ma'lumotlarga oid axborot beruvchi hamda ularni mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy mazmundagi suhbatlar mavzusi shaxs ma'naviyati- axloqining umumiy g'oyasidan, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi, shuningdek, ularning qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Ayrim hollarda muayyan voqea hodisalar suhbat uchun mavzu bo'lishi mumkin. Suhbatni olib boruvchi uning rejasi yoki asosiy masalalarini ishlab chiqadi, bu haqida suhbat ishtirokchilariga oldindan aytadi, ayrim masalalar bo'yicha so'zga chiquvchilarni belgilab, so'zga chiqishni tayyorlaydi. Suhbat uchun tegishli adabiyotlar tavsiya etiladi, o'quvchilar hayoti va badiiy adabiyotlarda bayon etilgan misollar asosida dalillar to'planadi.

1. Suhbat;
2. Hikoya;
3. Tushuntirish;
4. Ma'ruza va seminar tashkil etish va uyushtirish:

Ma'naviyatimizning buyuk timsollari; jadidchilik harakati namoyondalari; ma'naviy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining roli va o'rni; mehr va muruvvat – ulug' insoniy qadriyat; axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi; ezgulik va muqaddas kitoblar; ma'naviy- axloqiy tarbiya – kasbiy barkamollik asosidir va shu kabilar;

5. Namuna ko'rsatish. Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiborga olinadi hamda «ibrat-namuna – hayot dorilfununi» ruknida faoliyatni doimo yuritib turish lozim bo'ladi va bu jarayonni o'quvchilar o'qiydigan o'quv muassasalaridagi ustoz-murabbiylar hayoti va faoliyatidan boshlagani ma'qul;

Ijobiy shaxsiy namuna – o'quvchilar shaxsini shakllantirishda alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng obyektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish jarayonida pedagog-tarbiyachiga, otanaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. o'quvchilar o'zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha, "Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi". Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.R.Barotov- "Ta'limda psixologik xizmat" o'quv qo'llanma - Buxoro: 2007-yil. 344-355b
2. Ergashev P.S. Professor M.G.Davletshin va uning ilmiy maktabi. // Zamonaviy psixologiyaning amaliy imkoniyatlari mazvusiidagi xorijlik mutaxassislar ishtirokidagi ilmiy-amaliy an'uman materiallari to'plami. – Toshkent: TDPU, 2018. – 547 b.

3. V.Karimova, O.Hayitov, F.Akramova, N.Lutfullayeva.  
PSIXOLOGIYA: Nopedagogik va nopsixologik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // V.Karimovanning umumiy tahriri ostida. Toshkent. T.: TDIU, 2007. – 435 b.
4. Сафаев Н. С. Особенности исследований межкультурной коммуникации // Вестник мого университета. Серия «Психология» 2018. № 2. С ”-28
5. Quranov M.. “O‘zbekiston umumta’lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari”: p.f.d....diss - T.: 1998 y.